



UDK: 378:004(575.1)

Ferangis TO'XTAYEVA,

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti magistranti

E-mail: nigortoxtayeva@gmail.com,

"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti kafedrasini mudiri, PhD J.Qosimov taqrizi asosida

IMPROVING THE MODELING OF THE EDUCATIONAL PROCESS

Annotation

As a result of fully studying the method of improving the modeling of the educational process, working out management algorithms based on the pedagogical measurements the manifestation of the student's acts to fully master the knowledge during the training process.

Key words: Slope planes, Pareto optimal method, Expert method, Delphi method, artificial and natural horizontals.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МОДЕЛИРОВАНИЯ УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА

Аннотация

Проявление повышенного стремления учащегося к полноценному усвоению знаний в процессе обучения в результате исчерпывающего изучения метода совершенствования моделирования учебного процесса, разработки алгоритмов управления его процессом на основе педагогических измерений.

Ключевые слова: Учебный процесс, моделирование, алгоритм, объект, педагогическое моделирование, электронные пособия.

O'QUV JARAYONINI MODELLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Аннотatsiya

O'quv jarayonini modellashtirishni takomillashtirish usulini to'liq o'rganib, jarayonini boshqarish, pedagogik o'lchovlar asosida boshqarish algoritmlarini ishlab chiqish natijasida talabani mashg'ulot jarayonida bilimlarni to'liq o'zlashtira olishiga bo'lgan harakatining kuchayishining namoyon bo'lishi.

Kalit so'zlari: O'quv jarayoni, modellashtirish, algoritm, obyekt, pedagogik modellashtirish, elektron qo'llanmalar.

Kirish. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash Milliy dasturi mustaqillik sharofati bo'lsa, uni amalga oshirishning asosiy ilmiy metodik omillaridan biri yangi pedagogik texnologiyadir. Pedagogik texnologiyaning predmeti – ta'lim-tarbiya jarayonini optimal loyihalash, modellashtirish tizimi, mexanizmi. Ya'ni pedagogik qonuniyatlarga asoslangan ta'lim-tarbiya tizimini samarali ommabop mexanizmidir. Pedagogik texnologiya ommabopligi ilmiy asoslanganligi bilan individual mahoratdan farq qiladi. O'quv jarayonini takomillashtirish maqsadida yaratilgan barcha uslub, shakl va modellar faqat o'z egasi qo'lidagina yuqori samara beradi. Zamonaviy sharoitlarda axbarot texnologiyalarining jadal rivojlanishi boshqa yangi ta'lim muhitini yaratishni zaruratini paydo qildi. O'zbekiston Respublikasi Sobiq Prezidenti I.A.Karimov "...Bugungi kunda oldimizga qo'yilgan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli, amalga oshirilayotgan islohotlarimiz va rejalарimizning samarali taqdiri, avvalambor zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini anglab yetmoqdamiz"- deb ta'kidlaydi[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Taxlillar va o'rganishlar orqali B.Voxidov tomonidan "Nuqtani proyeksiyalovchi to'g'ri chiziq atrofida aylantirish" mavzusi bo'yicha slaydni video ko'rinishga o'tkazilgan bo'lib, videoda ovoqli tushuntirishlar mavjud[10]. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti dotsenti A.Karimov tomonidan chizma geometriya bo'yicha ma'ruzalar yaratilib, utube.uz saytiga joylashtirilgan. Bunda muallif tomonidan mavzu og'zaki tushuntirib, slaydlardan foydalanib, doskaga chizma chizmasdan


tashkil etilgan. Toshkent arxitektura-qurilish instituti dotsenti S.Saydaliyev tomonidan "Chizma geometriya va muxandislik grafikasi" fanidan ma'ruzalarni institut saytiga joylashtirgan. Bunda muallif tomonidan doskada dars davomida bevosita chizmalar chizilib dars tashkil etilgan[5]. Kiyev politexnika instituti professori A.V.Pavlov tomonidan "Aksonometrik proyeksiyalar" mavzusi bo'yicha, ayniqsa youtube.com saytida rus tilida juda ko'plab amaliy topshiriqlar chizish bo'yicha video darslar berilgan[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Chizmachilik, chizma geometriya va muhandisli grafikasi, mashinasozlik, grafik tasvirlash, konstruksiyalash, kompyuter grafikasini loyihalsh va amaliy geometriya kabi fanlarda fazoviy tasavvur juda kuchli bo'lishi lozim[2]. Buning uchun talabalarni yangi metodlar va innovasion programmalar bilan o'qitish lozim. Lekin hozirgacha talabalarda zamonaviy texnologiyalarni o'rganish, Internet yoki kompyuter kabi etishmovchiliklar muammo bo'lib kelmoqda. Buning uchun o'qtuvchi talabalari uchun internetsiz ishlaydigan elektron qo'llanmalar yaratishi lozim va bu qo'llanmalarni telefon orqali ochish imkoniyati bo'lishi lozim. Qo'llanma oddiy elektron darslikga o'xshamasligi kerak, masalan unda talabalar mavzuni yaxshi tushunishlari, o'z savollariga javob olishlari, turli xil mavzuga oid testlarni echishlari, uni muhokama qilishlari, har bir chizmaning bir necha usulda echilishi va uni echilishining eng optimal usullari, chizma bo'yicha mantiqiy savollar va ularning javoblari chizmalar orqali bir necha variantlarda berilgan bo'lib, uning to'g'ri variantlarini topish va mavzuni chuqur o'rganish usuli, ya'ni har bir mavzu chizmalari ostida alohida-alohida so'zlar bo'lib ular: "bilib oldim", "bilmagan edim" va "bilardim" usullariga bo'linadi.



1-rasm (turba sayt sahifasi).

Ularning har biri o'z funksiyasiga ega, masalan agar 1-o'rganish usulini bossak (bilib oldim)unda siz bilib olgan yangi ma'lumotlaringiz haqida qo'shimcha ma'lumot va chizmalar va shu mavzu bo'yicha testlarni echish orqali uni mustahkamlaysiz.



2-rasm(test yechish oynasi).

2-usul bo'yicha(bilmagan edim) siz aynan tushunmagan chizmangiz bo'yicha ko'p ma'lumotga ega bo'lib u bo'yicha test savollari sizda 80 %ni tashkil etadi bunga sabab sizda takrorlanish kuchayishi va uni yanda chuquroq tushunushga intilish.

3-usul bu bilardim usuli bo'lib siz bunda yangi bosqichdagi murakkab masalalarga duch kelasiz va uni echish yo'llarini o'rganasiz, bu usuldan maqsad yangi mavzuni juda chuqur isloh qilishdir. Bunda ham mavzu bo'yicha to'liq 100% lik test olinadi. Bunda turba sayt programmasidan yoki Auto Play programalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda ta'lim sohasida katta islohotlar olib borilishi natijasida maktab, kasb-hunar ta'limi, akademik litsey, oliy o'quv yurtlarida o'qitish tizimi tubdan o'zgardi, ularning moddiy-texnik bazalari mustahkamlanib bormoqda [11]. Buning natijasida ta'lim tizimining barcha

sohalarida ta'lim samaradorligini yuqori natijalarga ko'tarish kunning dolzarb muammolaridan biriga aylandi. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida yangi inovatsion o'qitish usullar ishlab chiqildi. Oliy ta'lim jarayonida chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanlarini o'qitish jarayonida talabalarining grafik fanlarni o'zlashtirishida yuqori natijalarga erishish algoritmi ishlab chiqildi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytishimiz mumkinki hozirgi davrda oliy o'quv muassalarida o'quv jarayonida yangi modellashtirish algoritmlarini tuzish dolzarb vazifa bo'lib kelmoqda, talabalarga dars o'tish jaroyini yangi zmonaviy uslub va metodlarni qo'llash kundan kunga o'sib bormoqda. Bu esa talabalarga davlatimiz tomonidan qaratilgan katta etibor va imkoniyatdir.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida"gi Qonuni. – T.: "Sharq", 2001.
2. A. N. Dahin. "Pedagogikada modellashtirish", jurnal №1(3) "Idei i ideali" m. 2010 g.
3. M.E. Bershadskiy., Ta'lim texnologiyasining didaktik va psixologik asoslari / M.E. Bershadskiy, V.V. Guzev. – M.: Pedagogik qidiruv, 2003. – 256 s.
4. Testlar, V.A. Trenningning "qattiq" va "yumshoq" usullari / V.a. testlari // Pedagogika. – 2004. – No 8. – S. 35-39.
5. Gusinskiy, E.N. Pedagogika falsafasiga kirish / E.N. Gusinskiy, Yu.I. Turchanino - va. – M.: logos, 2001. – 224 s.
6. Monks, V.M.O'qituvchining muallifning (o'z) metodik tizimini loyihalash / V.M. Monaxov, t.k. Smykovskaya // ShK. texnologii. – 2001. – No 4. – S.48-64.
7. Turkin, V.T.Zamonaviy pedagogika fanlarida moderasiyaning falsafiy muammolari: ta'lim, tarbiya / V.t. Turkin. – Oryol: Izd-vo og'pi, 1998. – S. 14-19.
8. Shamova, T.I. Adabiёт maktabida ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish / t.I. Shamova, t.M. davydenko. – M.: Tsentr, 2001. – 384 s.
9. You tube. Artur Sharipov. Sozdanie elektronogo uchebnika na Turbo sayt.
10. Kompyuter grafikasi fanini o'qitishda uch o'chamli modellashtirish vositasidan foydalanish metodikasi. Nasritdinova Umida Axmadjonovna
11. Chizma geometriya va muhandislik grafikasi fanini o'qitishda talabalar fazoviy tasavvurini multimediyali kompyuter texnologiyalari asosida rivojlantirish. Qahhorov Abdurahim Abdubanayevich.
11. <https://bruloworfei.ru/turbosite/>